



**UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH
BO'LINMALARI FAOLIYATINI IDORAVIY NAZORAT QILISHDA
KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Mirxamidov Mirmansur Mirshaxidovich*

Annotatsiya: Maqolada ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini idoraviy nazorat qilish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini zamonaviylashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi sharoitida eskirgan byurokratik qoliplardan voz kechish, tizimga "komplaens-nazorat", "komplaens-audit" kabi xatarlarni barvaqt aniqlovchi proaktiv boshqaruv vositalarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, prokuratura organlari va kriminolog-olimlar ishtirokida idoralararo doimiy ishchi guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish, milliy qonunchilikka eksterritorial yurisdiksiya va jamoatchilik nazorati normalarini singdirish orqali uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit va shaffof strategik tizimini shakllantirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: uyushgan jinoyatchilik, ichki ishlar organlari, tezkor bo'linmalar, idoraviy nazorat, komplaens-nazorat, komplaens-audit, proaktiv nazorat, transmilliy jinoyatchilik, idoralararo muvofiqlashtirish, eksterritorial yurisdiksiya, korrupsiyaning oldini olish, jamoatchilik nazorati, tezkor-qidiruv faoliyati, strategik tahlil.



Мирхамидов Мирмансур Миршахидович

Соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В ВЕДОМСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ПО БОРЬБЕ С ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТЬЮ

Аннотация: В статье проанализированы вопросы модернизации механизмов ведомственного контроля и координации деятельности оперативных подразделений органов внутренних дел по борьбе с организованной преступностью. Автором обоснована необходимость отказа от устаревших бюрократических шаблонов в условиях усиления организованной и транснациональной преступности, а также внедрения в систему таких инструментов проактивного управления, выявляющих риски на ранней стадии, как «комплаенс-контроль» и «комплаенс-аудит». Также в статье выдвинуты предложения и рекомендации по устранению коррупционных рисков, организации деятельности постоянных межведомственных рабочих групп с участием органов прокуратуры и ученых-криминологов, а также формированию целостной и прозрачной стратегической системы борьбы с организованной преступностью путем имплементации норм экстерриториальной юрисдикции и общественного контроля в национальное законодательство.

Ключевые слова: организованная преступность, органы внутренних дел, оперативные подразделения, ведомственный контроль, комплаенс-контроль, комплаенс-аудит, проактивный контроль, транснациональная преступность, межведомственная координация, экстерриториальная юрисдикция, предупреждение коррупции,



общественный контроль, оперативно-розыскная деятельность,
стратегический анализ.

Mirkhamidov Mirmansur Mirshakhidovich

*Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs of
the Republic of Uzbekistan*

ISSUES OF IMPLEMENTING A COMPLIANCE CONTROL SYSTEM IN DEPARTMENTAL SUPERVISION OVER THE ACTIVITIES OF UNITS COMBATING ORGANIZED CRIME

Abstract: The article analyzes the modernization of departmental control and coordination mechanisms regarding the operational units of internal affairs bodies in combating organized crime. Amid the rise of organized and transnational crime, the author substantiates the necessity of abandoning outdated bureaucratic frameworks and introducing proactive management tools into the system, such as "compliance control" and "compliance audit," to detect risks at an early stage. Furthermore, the paper puts forward proposals and recommendations aimed at eliminating corruption risks, establishing permanent interagency working groups involving prosecutorial bodies and criminologists, and developing a comprehensive, transparent strategic system for combating organized crime by integrating extraterritorial jurisdiction and public oversight norms into national legislation.

Keywords: organized crime, internal affairs bodies, operational units, departmental control, compliance control, compliance audit, proactive control, transnational crime, interagency coordination, extraterritorial jurisdiction, corruption prevention, public oversight, operational-search activity, strategic analysis.



Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish (keyingi o'rinlarda- UJQK) strategiyasining samaradorligi faqatgina tezkor tadbirlarni taktik rejalashtirishga emas, balki ixtisoslashgan tuzilmalar faoliyatini tizimli muvofiqlashtirish va qat'iy idoraviy nazoratga bevosita bog'liq. Jinoiy guruhlarining legal iqtisodiyotga sizib kirishi hamda konspiratsiyasining kuchayishi tezkor-qidiruv bo'linmalaridan kuch va vositalarni oqilona taqsimlashni, xatarlarni barvaqt aniqlovchi boshqaruv mexanizmini shakllantirishni va axborot almashinuvidagi to'siqlarni bartaraf etishni taqozo etmoqda.

Idoraviy nazorat tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar rahbarlarining boshqaruv funksiyasi bo'lib, u ushbu faoliyatning maqsad va vazifalarini amalga oshiruvchi tezkor bo'linmalar mansabdor shaxslari harakatlarining qonuniyligini, tezkor-qidiruv faoliyati kuch va vositalarining samarali qo'llanishini, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishini nazorat qilishga qaratilgan [1].

Uyushgan jinoyatchilikning transmilliy va moslashuvchan "tarmoq" ko'rinishini olayotgani ichki ishlar organlari boshqaruvida an'anaviy qoliplardan voz kechib, preventiv nazoratning ilg'or mexanizmlarini (raqamlashtirish, "komplaens-audit" va "brokerlarni" yo'q qilish strategiyasini) joriy etishni taqozo etmoqda.

Mazkur konseptual takliflarni ilmiy asoslashda tayanilgan O. Kopan va V. Melnik kabi tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, huquq-tartibot idoralarining tarqoq tuzilishi boshqaruv jarayonini murakkablashtiradi [2]. Shu bois, uyushgan jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun idoraviy to'siqlarni bartaraf etib, davlat kuchlarini birlashtirish hamda sof ma'muriy qoliplardan chiqib, tezkor vaziyat o'zgarishlariga tezda moslasha oladigan



yangi tashkiliy-funksional boshqaruv modelini yaratish ob'ektiv zarurat hisoblanadi.

O. Kopan va V. Melnikning ilmiy yondashuviga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, UJQK bo'linmalari faoliyatidagi sun'iy idoraviy to'siqlar va tarqoqlik o'zaro axborot almashinuvi hamda boshqaruv samaradorligini keskin pasaytiradi. Zamonaviy transmilliy jinoiy tarmoqlarga qarshi kurashda eskirgan ma'muriy qoliplardan voz kechish va yuqori tashkiliy-funksional moslashuvchanlikka erishish hayotiy zaruratdir.

I. Kopotun va V. Uvarovlarning ilmiy yondashuviga tayangan holda shuni ta'kidlash joizki, korrupsiyaviy aloqalar va yashirin resurslarga ega uyushgan jinoyatchilikka qarshi faqat qat'iy jazolash choralari bilan muvaffaqiyatli kurashib bo'lmaydi [3].

Buning uchun vakolatli organlar va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikning aniq huquqiy mexanizmlariga asoslangan kompleks strategiyani joriy etish taqozo etiladi. Aks holda, jamoatchilik ishtirokidan uzilgan yopiq idoraviy faoliyat va faqatgina jazolovchi mexanizmlarga tayanishdek tezkor-amaliy muammolar tizimli korrupsiya sharoitida davlat nazoratini kuchsizlantirib, huquqni muhofaza qilish siyosatining to'liq samarasizligiga olib keladi.

Bu esa, o'z navbatida, UJQK sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirishning yangi kengaytirilgan modelini ya'ni muvofiqlashtirish tizimiga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilishni va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini qonunchilik darajasida legallashtirishni taqozo etadi. Davlat xavfsizlik kuchlari va jamoatchilik imkoniyatlarini yagona kompleks strategiya asosida muvofiqlashtirmasdan turib, ayniqsa, tizimli korrupsiya sharoitida jinoiy guruhlarining harakatlanish maydonini toraytirish va tezkor-qidiruv siyosatining umumiy samaradorligini ta'minlash imkonsizdir.

Xuddi shuningdek, serbiyalik olimlar Z. Jurjevich, N. Radovich va J. Nikach Yevropada jinoiy guruhlar faoliyatini ichkaridan yemirishda xalqaro



politsiya koordinatsiyasi va strategik tahlil tizimlarining ahamiyatini tadqiq etishgan. Olimlarning fikricha, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda kompleks va samarali yondashuvni shakllantirish uchun amaliy tajriba hamda ilmiy tahlilni o'zaro birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Yevropa Ittifoqi standartlariga mos bo'lgan "Uyushgan va jiddiy jinoyatchilik tahdidlarini baholash" (SOCTA) tizimini amaliyotga joriy etish – tezkor axborotlarni olishdagi bo'shliqlarni to'ldirish va jinoiy tarmoqlarni fosh etish, ularning naqd pul oqimlarini kuzatish hamda aktivlarini musodara qilishda markaziy muvofiqlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlab o'tilgan [4].

Biroq, xalqaro miqyosdagi bunday tezkor va tahliliy integratsiyani amaliyotga to'laqonli tatbiq etish uchun, eng avvalo, davlatlarning milliy qonunchiligi global talablarga moslashtirilishi, ya'ni muvofiqlashtirishning mustahkam huquqiy poydevori yaratilishi talab etiladi. Aynan mazkur huquqiy muvofiqlashtirish zaruratini tadqiq etgan jazoirlik olimlar M. Bessas va H. Suiki qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borishni uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning barvaqt oldini oluvchi eng muhim bosqichi deb hisoblashadi.

Jinoiy guruhlar davlatlar o'rtasidagi qonunchilik tafovutlaridan va transmilliy imkoniyatlardan foydalanishini inobatga olib, mualliflar xavfsizlik va sud organlari uchun "eksterritorial yurisdiksiya normalarini" va transchegaraviy jinoiy unsurlarni ta'qib qilishning kengaytirilgan mexanizmlarini yaratishni taklif qiladilar [5]. Bu jinoyat qonunchiligining an'anaviy hududiylik prinsipidan chekinib, global jinoyatchilikka qarshi xalqaro birdamlik prinsipini ustuvor qilishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, qonunchilikni xalqaro darajada uyg'unlashtirish va eksterritorial yurisdiksiya normalarini yaratish transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashning faqatgina huquqiy poydevorini ta'minlaydi. Mazkur yuridik normalarni amaliyotda to'laqonli ro'yobga chiqarish va tezkor-qidiruv



harakatlarini chegaralararo muvofiqlashtirish uchun esa yuqori darajadagi texnologik integratsiya hamda idoralararo o'zaro ishonch mexanizmlari talab etiladi.

Muammoning aynan shu jihatiga e'tibor qaratgan A. Xovanes o'z tadqiqotlarida XXI asrda uyushgan jinoyatchilikning global miqyosda o'ta murakkab tuzilish va transmilliy xarakterga ega bo'lib borayotganini, shuningdek, jinoiy guruhlar davlatlarning huquqiy hamda texnologik tizimlaridagi bo'shliqlardan unumli foydalanayotganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, xalqaro politsiya va sud organlari (Interpol, Yevropol, OLAF, Eurojust) o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirishning eng ustuvor omili – barcha tezkor-qidiruv va tezkor-izlanuv tartib-taomillarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish hisoblanadi.

Mazkur jarayon davlatlar o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama shartnomalarga tayanishi, eng muhimi esa, hamkorlikdagi "o'zaro ishonch prinsipi"ga asoslanishi shart. Shu boisdan, davlat xavfsizlik idoralari kriminal vaziyatga nisbatan faqat sodir bo'lgan faktdan so'ng reaksiya bildirmasdan, balki proaktiv, ya'ni oldinga o'zib harakat qilishi taqozo etiladi [6].

Biroq, xalqaro miqyosdagi raqamli integratsiya va transchegaraviy axborot almashinuvi qanchalik muhim bo'lmasin, olingan tezkor ma'lumotlarni milliy darajada tizimli tahlil qilish va ular asosida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ichki muvofiqlashtirish mexanizmlarini ham ilmiy asosda kuchaytirish talab etiladi. Muammoning aynan mana shu ichki koordinatsiya va chuqur tahliliy yondashuv jihatiga e'tibor qaratgan S. Belotserkovskiy uyushgan jinoyatchilikni oddiy kriminal guruh emas, balki narkobiznes, kriminal bozor va korrupsiya bilan chambarchas bog'langan "tizimli jinoiy faoliyat" sifatida baholaydi. Bunday sharoitda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini prokuratura organlari tomonidan muvofiqlashtirilishi markaziy ahamiyatga ega.



Muallif muvofiqlashtirish va idoraviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish uchun har bir tizimli kriminal muammo yuzasidan prokuror rahbarligida “Idoralararo doimiy ishchi guruhlar” tuzishni taklif etadi. Ushbu ishchi guruhlar tarkibiga fan vakillari ya’ni kriminolog-mutaxassislar jalb etilishi, ularning vazifasi esa turli tezkor axborot manbalari asosida vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda federal va hududiy darajada jinoyatchilik rivojlanishini prognozlash orqali muvofiqlashtiruvchi qarorlar qabul qilishdan iborat bo‘lishi lozim [7].

S. Belotserkovskiyning ilmiy yondashuvidan kelib chiqib ta’kidlash joizki, UJQK faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonini faqatgina amaliy tezkor-tergov harakatlarini mexanik birlashtirish sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Uyushgan jinoyatchilikning “tizimli” va korrupsiyalashgan tabiati muvofiqlashtirish ishlariga chuqur ilmiy-tahliliy yondashuvni taqozo etadi.

Prokuratura organlarining muvofiqlashtirish rolini kuchaytirish hamda doimiy idoralararo ishchi guruhlariga kriminolog-olimlarni jalb etish muvofiqlashtirish faoliyatining eng muhim strategik elementi hisoblanadi. Aynan mazkur ilmiy-amaliy integratsiya muvofiqlashtiruvchi sub’ektga turli idoralarning tezkor ma’lumotlarini tizimli tahlil qilish, jinoyatchilik tendensiyalarini oldindan prognozlash va shu asosda proaktiv, ilmiy asoslangan muvofiqlashtirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Biroq, UJQK sub’ektlari o‘rtasidagi bunday yuqori darajadagi ilmiy-tahliliy va idoralararo muvofiqlashtirish jarayoni o‘z-o‘zidan, ichki muammolarsiz kechmaydi.

Muammoning aynan mana shu ichki boshqaruv va korrupsiyaviy xavf-xatarlar jihatini tadqiq etgan F.A. Primovning fikricha, davlat boshqaruvidagi byurokratik to‘siqlar ko‘pincha idoraviy ish yuritish tartibotlari va tor “idoraviy manfaatlar”ga borib taqaladi. Bunday idoraviy yopiqlik korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi. Buning oldini olish va idoraviy nazoratni



zamonaviylashtirish uchun “komplaens-nazorat” tizimini joriy etish tavsiya qilinadi.

Ushbu tizim tashkilotning ma'muriy kompetensiyalari doirasida ichki me'yoriy talablarni (Korporativ etika kodeksi, manfaatlar to'qnashuvi siyosati va h.k.) o'rnatib, xodimlarning xulq-atvori ustidan qat'iy idoraviy nazorat o'rnatadi hamda talablarni buzganlik uchun intizomiy javobgarlik mexanizmlarini ishga tushiradi [8].

UJQKX tezkor bo'linmalari faoliyatida idoraviy nazorat tezkor-qidiruv tadbirlarining qonuniyligini qat'iy ta'minlashi shart. Zero, bu tamoyil faqatgina qoidalarga rioya qilish mezonini emas, balki olingan natijalardan jinoyat protsessida to'laqonli va maqbul dalil sifatida foydalanishning asosiy shartidir.

Shu sababli, idoraviy nazoratni shunchaki passiv kuzatuvchi funksiyasidan chiqarib, O. Kopan, V. Melnik va P. Polyanlarning ilmiy xulosalariga muvofiq, tizimga xalqaro standartlarga asoslangan “komplaens-audit” (ichki tartib-taomillarning qonunchilikka muvofiqligi) mexanizmini majburiy joriy etish taqozo etiladi [2].

Mazkur preventiv vosita idoraviy nazoratni jinoyat sodir etilgandan so'ng qo'llaniladigan reaktiv choradan kriminal xavf-xatarlarni barvaqt aniqlovchi boshqaruv mexanizmiga aylantirib, tezkor-amaliy nuqtai nazardan uyushgan jinoiy tuzilmalarning davlat apparatlariga sizib kirishi hamda yashirin moliyaviy oqimlarini tizimli ravishda va o'z vaqtida to'sish imkonini beradi.

Ushbu olimlarning ilmiy yondashuvidan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, UJQK faoliyatini muvofiqlashtirish faqat tashqi kriminal tahdidlarga qarshi qaratilgan tezkor tadbirlar bilan cheklanmay, balki huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning ichki xavfsizligi va antikorrupsion daxlsizligini ta'minlashni ham taqozo etadi. Muvofiqlashtirish tizimiga “komplaens-audit” kabi ilg'or vositalarning joriy etilishi muvofiqlashtirish jarayonini sodir bo'lgan jinoyatga reaksiya bildirishdan barvaqt oldini oluvchi bosqichga olib chiqadi.



Ukrainalik tadqiqotchi M.V. Grebenyuk davlat xavfsizligini ta'minlashda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha izchil davlat siyosatining mavjud emasligini, qonunchilik va institutsional tizimdagi tarqoqlik hamda bo'shliqlar kriminal vaziyatning keskinlashuviga olib kelishini ta'kidlaydi. Muallif davlat xavfsizligi strategiyasini Yevropa Ittifoqi standartlariga, xususan, Yevropol tomonidan qo'llaniladigan "Uyushgan va jiddiy jinoyatchilik tahdidlarini baholash" ya'ni SOCTA Ukraine metodologiyasiga to'liq moslashtirish zarurligini asoslab bergan.

Ushbu tizimli refoormaning muhim shartlari sifatida huquqni muhofaza qilish va sud organlarining statistik hisobot shakllarini o'zaro mutanosib holga keltirish, davlat va jamiyat darajasida kriminal qilmishlarga nisbatan murosasozlik illatidan voz kechish hamda milliy darajada "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yillik milliy hisobot"ni muntazam e'lon qilib borish majburiyatini yuridik mustahkamlash taklif etiladi [9]. Bu choralar davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan xalq ishonchini tiklash hamda mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini xavfsiz kiritishning huquqiy kafolatidir.

M.V. Grebenyukning ushbu ilmiy yondashuviga tayangan holda shuni e'tirof etish joizki, UJQK faoliyatini muvofiqlashtirish faqatgina tezkor-qidiruv tadbirlarini birlashtirish bilan cheklanmay, balki davlat miqyosidagi yagona, izchil va shaffof strategik siyosatni shakllantirishni ham taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini idoraviy nazorat qilish va muvofiqlashtirishni zamonaviylashtirish transmilliy jinoiy tarmoqlar hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga samarali javob berishning muhim omilidir. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan ilmiy va xalqaro tajriba asosida eskirgan byurokratik qoliplar hamda idoraviy yopiqlikdan voz kechish, tizimga «komplaens-audit» va SOCTA kabi proaktiv xatarlarni baholash va raqamli modernizatsiya mexanizmlarini joriy etish maqsadga



muvofigligi asoslangan. Shuningdek, prokuratura organlarining rahbarligida kriminolog-olimlarni jalb etgan holda idoralararo doimiy ishchi guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish, milliy qonunchilikka eksterritorial yurisdiksiya va jamoatchilik nazorati normalarini singdirish orqali kurashning yagona va shaffof strategik tizimini shakllantirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamdamov A.A., Saitbaev T.R., Gordeev S.N., Rashitxodjaev R.T. O'zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi qonuniga sharh / Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 170 b.
2. Kopan O., Melnyk V. International experience in mobilising mechanisms to combat organised crime // Law Journal of the National Academy of Internal Affairs. – 2024. – 14(4). – P. 9-22. DOI: 10.56215/naia-chasopis/4.2024.09.
3. Kopotun I., Uvarov V., Svoboda I., Veklych V., Dovban L. Coordination of the fight against organized crime resulted from corruption // Amazonia Investiga. – 2022. – 11(50). – P. 260-271. DOI: 10.34069/AI/2022.50.02.24.
4. Đurđević Z., Radović N., Nikač Ž. The Fight against Organised Crime in Serbia and International Police Cooperation // Hungarian Law Enforcement. – 2025. – Special Issue. – P. 185-196. DOI: 10.32577/MR.2025.KSZ.1.12.
5. Bessas M., Souiki H. Updating and harmonizing legislation: A proactive step in combating transnational organized crime // International Journal of Law: "Law and World". – 2024. – 10(2). – P. 75-86. DOI: 10.36475/10.2.7.



6. Chowaniec A. Organy ochrony prawa odpowiedzialne za przeciwdziałanie i zwalczanie przestępczości zorganizowanej na arenie międzynarodowej – rola i skuteczność współpracy międzynarodowej // Zeszyty Naukowe Collegium Witelona. – 2024. – 53(4). – P. 116-127. DOI: 10.5604/01.3001.0055.2345.
7. Белоцерковский С. Организованная преступность и координация деятельности правоохранительных органов по борьбе с ней // Законность. – 2011. – № 12. – С. 9-11.
8. Primov F.A. Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarning ma'muriy-huquqiy jihatlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2, № 10. – B. 163-172.
9. Гребенюк М.В. Направления усовершенствования законодательного обеспечения мероприятий в сфере защиты государственной безопасности по вектору — борьба с организованной преступностью // Публичное управление (Public Management). – 2019. – № 4 (19). – С. 78-91. DOI: 10.32689/2617-2224-2019-4(19)-78-91.